

TOPONIMIK BIRLIKLARNING FANLARARO XUSUSIYATLARI

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti katta o'qituvchisi*

Ergasheva Nodira Abdurayimovna

Talaba: Ibragimova Kamilla 35-23 KMBKM guruhi

Mustafoyeva Shaxrizoda 7b-23 Kt guruhi

Annotatsiya: Joy nomlari qadimiy va uzoq davrlarning mahsuli bo'lib, hudud tarixi, geografiyasi, tabiati va boshqa jihatlari haqida boy ma'lumot beruvchi lisoniy darakchilardir. Shu bois toponimlarni tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, goologiya kabi o'nlab fanlar o'z predmeti nuqtai nazaridan o'rganadi.

Kalit so'zlar: *Lingvistika, semantika, indikator, lug'at, toponimik birliklar, sistema, etnografiya, lisoniy darakchi, atoqli otlar, turdosh otlar, onomastika.*

Jahon tilshunosligida toponimik birliklarning tilshunoslik, tarix, geografiya, etnografiya masalalariga oid xususiyatlari tadqiq etib kelinmoqda. Hozirgi kunda muayyan arealga xos toponimik birliklarning barcha turlarini yaxlit bir butun tizim sifatida antropotsentrik, sotsiolingvistik, semantik, nominatsion-motivatsion, tarixiy-etimologik jihatdan tadqiq etishga talab ortmoqda.

Har bir tilning toponimik tizimi davrlar mobaynida shakllanib boradi. Ushbu vaqt davomida toponimlarning shakllanishiga tarix, mifologiya, din va boshqa shu kabi madaniyat bilan bog'liq ekstralingvistik omillar ta'sir etadi.

Ma'lumki, dastlabki toponimlar oddiy turdosh otlardan farq qilmaydigan sodda nomlar edi. Insonlarning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri va atrof-muhit haqidagi tasavvuri kengayib, bir joyning ikkinchisidan, bir nomning boshqasidan, yaqindagi tepalikni uzoqdagisidan farqlash ehtiyoji tug'ila boshlaydi. Tabiiyki, o'z-o'zidan ijtimoiy ong rivojlangani sari tushunchalar soni ortib, geografik nomlar grammatik va semantik jihatdan murakkablasha borgan. O'tmishda toponimlar dastlab faqat geograf va tarixchilar tomonidan o'rganilgan.

XX asrga kelib esa, toponimlar lingvistlar tomonidan sistema sifatida tadqiq etila boshladi. Shu bois, uzoq yillardan beri olimlar orasida toponimika fani va uning qaysi sohaga mansubligi haqida juda ko'p munozarali bahslar bo'lgan. Jumladan, V. A. Nikonov "Toponimikani til orqali emas, tilni toponimika orqali izohlash lozim" degan bo'lsa, S. Qorayev tomonidan "Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi, so'zni albatta tilshunoslik – lingvistika fani

o'rganishi kerak" yoki "toponimika atoqli otlarni o'rganadigan onomastika fanining bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi" degan fikrni bildirgan.

Toponimika fani tarixchilar ham, geograflar ham, tilshunoslar ham o'zining mutaxassisligidan kelib chiqib o'rganadigan fan hisoblanadi. Bu esa uning fanlararo xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu o'rinda H. Hasanovning fikrini keltirib o'tishni joiz deb topdik: "Filologlar ham, geograflar ham, tarixchilar ham tan olsinki, toponimika bu uchala fan chegarasidagi sohadir, kimki toponimika bilan astoydil shug'ullanishni istasa, u bir necha fanni o'rganib olishi zarur, filolog etnografiyani, tarixni, tabiiy va iqtisodiy geografiyani, tarixchi filologiyani, geografiyani, geograf tilni, tarixni va etnografiyani bilishi lozim".

Joy nomlari qadimiy va uzoq davrlarning mahsuli bo'lib, hudud tarixi, geografiyasi, tabiati va boshqa jihatlari haqida boy ma'lumot beruvchi lisoniy darakchilardir. Shu bois toponimlarni tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, goologiya kabi o'nlab fanlar o'e predmeti nuqtai nazaridan o'rganadi.

Toponimika shu bois tilshunoslikni yuqorida keltirilgan fanlar bilan tutashtiruvchi, bog'lovchi rishta, o'z navbatida, ular uchun muhim dalillar, ma'lumotlar beruvchi nazariy va amaliy soha hamdir. E.A.Begmatov to'g'ri ta'kidlaganidek, joy nomlari (toponimlar) yuzasidan tilshunoslar, tarixchilar, geograflar, etnograflar, folklorshunoslar hozirgacha bir necha tadqiqotlar olib borishgan bo'lsa-da, mazkur tushuncha doirasiga kiradigan til birliklari - nomlar doirasi, chegarasi aniq va izchil belgilangan emas. Ko'p hollarda joy nomlari toponimlar deyilganda viloyat, tuman, shahar, qishloq, mahalla, ko'cha, maydon nomlarigina tushuniladi. Aslida toponimlar mundarijasi ancha keng va serqirradir. Uning joy nomlariga oid ilmiy-ommabop risolasida birinchi marta toponimiya doirasiga kiruvchi atoqli otlarning asosiy guruh va turlari to'laroq hamda mukammalroq qayd etildi.

Toponimika fanining tadqiqot metodlari so'nggi bir asr davomida shakllanib borganligi haqida talqin etilgan. Sababi, amaliy toponimika davr indikator sifatida jamiyat rivojlanishida sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarni (siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, fan taraqqiyoti) o'zida aks etadi. Toponimika fanining tadqiqot metodlari to'g'risida E.M. Murzayev, Y.A. Karpenko, V.A. Juchkevich, Ye.M. Pospelov, o'zbek olimlaridan S. Qorayev, T. Nafasov, Z. Do'simov, T. Enazarov, N.O'. G'aniyev va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalan, filolog olim T.Enazarov so'nggi yillardagi ilmiy tadqiqot ishlarida toponimikaning lingvistik metodlariga ko'proq e'tibor qaratgan.



Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, hozirgacha shakllangan toponimik tadqiqot metodlarning qaysi biri eng muhimligini aytish qiyin, chunki ularning har biri fanning o'rganish obyekti bo'lgan geografik nomga turlicha yondashish imkonini beradi va joy nomining mazmun-mohiyatini aniqlashda har biri alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmyaton E.A. Joy nomlarm - Ma'naviat ko'zgusn -Toshkent: Ma'naviyat, 1998- y. 22-24-b.
2. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Nosir Uluqov. Monografiya. 2006.Toshkent 3-4- b.
3. O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 42-jild, 2013- y.